

**TA'LIMNING O'QUVCHILAR QIZIQISHLARIGA KO'RA  
TABAQALASHTIRILISHINING MAQSADGA MUVOFIQLIGI****Muxtorova Dilfuza Mahmudjon qizi***Namangan davlat universiteti ta'lim menejmenti kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Bola tarbiyasida, o'quvchining o'zlashtirish jarayonida bolaning istaklaridan kelib chiqib ish olib borish, o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishga xizmat qiluvchi yo'ldir.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs, iqtidor, layoqat, qobiliyat.*

**Аннотация:** *В детском образовании работа с учетом пожеланий ребенка в процессе обучения ученика является способом дальнейшего повышения интереса учащихся к образованию.*

**Ключевые слова:** *личность, талант, способности, способности.*

**Abstract:** *In child education, working based on the child's wishes in the student's learning process is a way to further increase the students' interest in education.*

**Key words:** *personality, talent, ability, ability.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", - degan edi. Inson jamiyatda eng oliy qadriyat hisoblanadi. Ammo, shaxslar turli qiziqish, turli iqtidor, turli o'sish sur'atiga ega, ular turli sohalar bo'yicha turli darajada muvaffaqiyatga erishadilar. Ushbu omillarni shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida hisobga olish kerak. Ta'limda o'quvchilar qiziqishlariga ko'ra tabaqalashtirilishining maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Niyat ehtiyoj asosida paydo bo'ladi. Agar o'qituvchi o'z ishlarini belgilab qo'ygan bolaga rejalarini o'zgartirib yuboradigan topshiriq bersa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shunday ikki yo'ldan birini tanlash vaziyatiga tushib qolgan o'quvchining xulq-atvorida keskin o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'quvchilarga o'z oldilariga qo'ygan niyatlariga erishishlari uchun yordam berish yo'lini qidiring. O'quvchi niyatini amalga oshirishi uchun kuchi yetmasligi haqida o'ylab ham o'tirmaydi. Uning oliy maqsadi niyatiga erishish. O'quvchiga kattalar tomonidan hech qanday ko'mak berilmasa, to'g'ri yo'l ko'rsatilmasa niyatining ro'yobini ko'rmagandan so'ng unda ishonchsizlik shakllanadi.

Hurmat, e'tibor qozonish istagi hamma odamda mavjud bo'ladi. Ko'pgina odamlar bilim olish uchun emas, balki e'tiborga tushish uchun o'qishga harakat qiladilar. Ularni yuqori darajadagi raqobat muhiti o'ziga tortadi. Agar bu stimuly o'quvchi ongida ildiz otib, o'rnashib qolgan bo'lsa va ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, undan to'g'ri foydalanishga harakat qilish kerak.

O'quvchini uni cho'chitadigan muhitda yolg'iz qoldirmang toki u bunday vaziyatda yo'l topishni o'rganib olmaguncha. O'quvchi doska oldida javob berishga qo'rqsa, u bilan yakkama-yakka tarzda mashq qiling. Sizning vazifangiz - o'quvchida o'ziga ishonch hissini paydo qilish.

Maxsus psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qanchalik nohaq bo'lishmasin, odamlar baribir o'zini mutlaqo aybdor deb hisoblashmas ekan. Insonni aynan o'sha zaif tomonidan foydalanamiz. Mayli, o'quvchilar o'ylasinki, uning yomon baho olishida faqat o'qituvchi aybdor. Mayli sharoitning noqulayligi, omadsizligini ro'kach qilib o'zini oqlasin, uning xayollarini buzishga shoshilmaylik. Unga o'z sha'nini saqlab qolishga imkon beraylik.

Yahudiylarning oilasidagi bola tarbiyasidagi o'ziga xoslik shundan iboratki, ular bolaning juda kichkina yutug'ini ham e'tiborsiz qoldirishmaydi. Uni albatta ta'kidlab, e'tirof etishadi.

O'quvchining muvaffaqiyatga erishishi borasidagi tavsiyalar:

1. O'quvchi o'zini yaxshi tutgan paytlari har doim uni ko'proq maqtang. Bu holat uning har doim siz ma'qullaganingizdek o'zini tutishga harakat qilishiga yordam beradi.

2. Agar o'quvchi o'zini noto'g'ri tutsa, bola shaxsini muhokama qilmang. Uning aynan shu lahzadagi xulqini muhokama qiling. Shunday qilsangiz bola o'zini hurmat qilishlarini, yaxshi ko'rishlarini, lekin hozirgi qilgan qiligi noto'g'ri ekanligini tushunadi.

3. Har doim o'quvchingizni yoshini va rivojlanishini hisobga oling.

4. O'quvchidan so'rayotgan talabingiz mantiqiy bo'lishi kerak.

5. O'quvchini jazolashda o'zingiz hotirjam bo'lishingiz kerak.

6. O'quvchingizga tanbeh berayotganingizda gapingiz ohangi va taxlitiga e'tibor bering.- o'zingiz siz bilan shu yo'sinda gaplashishlarini xohlarmidingiz?

7. Har doim bola sizni tushunayotganiga ishonch hosil qiling

Bolalar nimani xohlashayotgani haqida o'ylang!

- Istaklarga tayaning;

- Qiziqishlar va mayllarni hisobga oling;

- O'quvchining niyatini bilishga harakat qiling;

- O'quvchining hurmatga sazovor bo'lish istagini rag'batlantiring;

- O'quvchi hatti-harakatlari oqibatini ko'rsating;

- Bolaning qadr-qimmatini joyiga qo'ying.

Bola tarbiyasida, o'quvchining o'zlashtirish jarayonida bolaning istaklaridan kelib chiqib ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tasavvur qiling, uyingizda sichqon ko'paydi. Siz oldingizga sichqonni yo'q qilish maqsadini qo'ydingiz va qopqon qo'ydingiz. Qopqonga hech vaqt qip-qizil bo'lib pishgan gilos qo'ymaysiz. Albatta, non bo'lagini qo'yasiz. Chunki, sichqon gilosni emas, nonni hushlaydi. Qarangki, sichqonni istagidan kelib chiqib maqsadingizga erishdingiz. Maqsadga erishish yo'lida qandaydir bir kemiruvchining ham istagini qondirib, so'ng niyatimizga yetyapmiz. Biz esa o'quvchilar bilan shug'ullanish jarayonida ularni o'zimizga moslashga harakat qilamiz, istaklari haqida o'ylamaymiz ham. Bundan bir necha asrlar oldin ibn Sino bobomiz ham ta'limda yaxshi natijaga erishish uchun bolaning xohish-istak, qobiliyat va mayllarini hisobga olib o'qitish zarurligini ta'kidlagan edilar.

Bola tarbiyasi borasida keng tarqalgan xatolarimiz:

- Doimiylikning yo'qligi;
- O'qituvchi va ota-onalar o'rtasida hamkorlikning mavjud emasligi;

- O'quvchiga hech qanday chegaralar qo'yilmasligi;
- O'quvchining kamchiliklari barcha bolalar oldida muhokama qilinishi;
- Boshqalar bilan solishtirish;
- Jismoniy jazolash;
- A'lochilik sindiromiga sababchi bo'lish;
- Mutlaq nazorat;
- Hammasini o'quvchi uchun hal qilib qo'yish.

O'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri – yoshlarning tashabbuslari, innovatsion g'oya va fikrlarini, iste'dod va iqtidorini o'z vaqtida ko'ra olish va uni ro'yobga chiqarish uchun ko'makdosh bo'lish va o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirish orqali yuksak ma'naviyatli, yetakchi yoshlarni tarbiyalash, ularni mamlakatimiz taraqqiyoti va uning istiqboli uchun yo'naltirishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani, darslik, A.B.Sayfutdinovna, T.M.Baxtiyor qizi, X.M. Xabibullayevna, T-2022
2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'quv qo'llanma, R.Mavlonova, B.Normurodova, N. Rahmonqulova, T-2010
3. Rustamovich, Q. J. (2023). MUAMMOLI TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 22(4), 115-117.